

MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA XOS KOMPETENSIYALAR VA ARHITEKTONIKA

Uzakova Kansuliu Yerejebbaevna – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

uzakovakansulu883@gmail.com

Innovatsion texnologiyalar universiteti

КОМПЕТЕНЦИИ И АРХИТЕКТОНИКА, ХАРАКТЕРНЫЕ ДЛЯ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ

Узакова Кансулиу Ережепбаевна – *доктор философии по педагогическим наукам*

Инновационно технологический университет

COMPETENCIES AND ARCHITECTONICS CHARACTERISTIC OF THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATION CULTURE

Uzakova Kansuliu Yerejebbaevna – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences*

University of Innovative Technologies

Tayanch so'zlar: etika, arxitektonika, globallashuv, aksiologik, deontologik, kompetenisiya, emotsional, empatiya, regyulativ, kreativ, motivatsion, refleksiv, verbal, nonverbal, altruistik.

Rezyume. Maqolada muloqot madaniyatining mikrotizimlari (axboriy, psixologik va faoliyatli), komponentlari, funktsiyalari va arxitektonikasi o'rganiladi. Tadqiqot natijalari talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini taklif etadi, bu kasbiy kompetensiyalarni oshirishga xizmat qiladi.

Ключевые слова: этика, архитектоника, глобализация, аксиологическая, деонтологическая, компетенция, эмоциональная, эмпатия, регулятивная, креативная, мотивационная, рефлексивная, вербальная, невербальная, альтруистическая.

Резюме. В статье исследуются микросистемы (информационная, психологическая и деятельностная), компоненты, функции и архитектоника коммуникативной культуры. Результаты исследования предлагают педагогические механизмы формирования коммуникативной культуры у студентов, которые будут способствовать повышению профессиональной компетентности.

Key words: ethics, architectonics, globalization, axiological, deontological, competence, emotional, empathy, regulative, creative, motivational, reflexive, verbal, nonverbal, altruistic.

Summary. The article studies the microsystems (informational, psychological and activity), components, functions and architectonics of communication culture. The results of the research suggest pedagogical mechanisms for the formation of a communication culture in students, which will serve to increase professional competencies.

Kirish. Insoniyat tarixida so'zlash, tinglash va anglash kabi tushunchalar jamiyatdagi munosabatlarning asosini tashkil etadi. Muloqot madaniyati har bir xalqning madaniyati, an'analari va mentalitetiga bog'liq bo'lib, sharq xalqlarida inson ruhiyati, odob-axloqi va ma'naviyatini aks ettiradi. Sharqona an'analar va faylasuflar o'g'itlari talabalarda zamonaviy muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Globallashuv davrida milliy qadriyatlarimizni saqlab qolish zarur. Muloqot madaniyati mezonlari shaxslararo munosabatlarning axloqiy, madaniy, kasbiy va psixologik qoidalariga asoslanadi (1.7-rasmga qarang).



1.7-rasm. Muloqot madaniyatini rivojlantirish mezonlari

Muloqot madaniyati talabalarining barkamol shaxs bo'lib shakllanishida asosiy omil bo'lib, jamiyatning ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Mamlakatimizda yoshlarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar orqali muloqot madaniyati shakllantirilmoqda. Talabalarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini rivojlantirish quyidagi

kompetensiyalarga asoslanadi emotsional aloqa o'rnatish, muloqotga kirisha olish, his-tuyg'ularni nazorat qilish, kuzatuvchanlik, suhbatdosh psixologik xususiyatlarini tushunish va verbal/nonverbal muloqot qobiliyatlari. (1-jadvalga qarang):


1-jadval: Muloqot madaniyatini rivojlantirishga xos kompetensiyalar modeli

MULOQOT MADANIYATI KO'NIKMALARI	
Emotsional aloqa o'rnatish	O'qituvchi talabalar bilan samimiy munosabat o'rnatib, dars jarayonida ularning hissiyotlarini tushunib, ularga mos munosabat bildirish.
Muloqotga kirisha olish qobiliyati	Yangi suhbatga kirishishda salomlashish, mavzuga mos ochiq savollar berish va do'stona ohangda gapirish.
O'z his-tuyg'ularini nazorat qilish qobiliyati	Janjal yoki keskin vaziyatda sabr qilish, hissiyotlarga berilmasdan mulohaza qilish va xotirjam bo'lish.
Kuzatuvchanlik va diqqatni jamlay olish qobiliyati	Tinglovchi suhbat davomida diqqatini suhbatdoshiga qaratib, uning so'zlariga, tana tiliga va yuz ifodalari e'tibor berish.
Suhbatdoshining psixologik xususiyatlarini tashqi belgilarga ko'ra tushunish	Suhbatdoshning ovoz ohangi, mimiklari va tana harakatlariga qarab, uning kayfiyatini aniqlash va shunga mos ravishda munosabat bildirish.
Verbal va nonverbal muloqot qobiliyatlari va boshqalar.	Qo'l harakatlari, yuz ifodalari, ovoz balandligi orqali fikrni to'g'ri yetkazish va suhbatdoshning tana tilini tushunish.

Muloqot madaniyati tarkibiy qismlari: muomala odobi, fikrlash madaniyati, til madaniyati va nutq madaniyati. Fikrlash madaniyati muloqot vazifalarini hal qilishda namoyon bo'ladi (Leontiyevning fikri bo'yicha: maqsad va sabablar, auditoriya xususiyatlari, sharoitlar). Nutq madaniyati insonning umumiy madaniyatining ko'rsatkichi bo'lib, kasbiy faoliyatda muhim. Muloqot madaniyati o'qituvchi uchun kasbiy xususiyat bo'lib, talabalarning shakllanishida alohida e'tibor talab etadi [1].

Empatiya rivojlantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, faol tinglash, emotsional intellekt, rol o'ynash, ijtimoiy faollik, pedagogik treninglar, o'z-o'zini baholash va san'atdan foydalanish kabi usullar orqali amalga oshiriladi. Ushbu usullar talabalarda ham, kattalarda ham muloqot madaniyatini va shaxslararo munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Empatiya nafaqat shaxsiy, balki kasbiy muvaffaqiyat uchun ham muhim bo'lib, jamiyatda o'zaro hurmat va hamkorlikni rivojlantiradi.

Muloqot madaniyati sotsiallikka asoslanadi muloqotdan zavqlanish, ijtimoiy yaqinlik va altruistik tendensiyalar (empatiya). Talabalarda muloqotga kirishuvchanlik fikrlash qobiliyatiga bog'liq. Muloqot madaniyati "xulq-atvor madaniyati" va "etiket"dan kengroq bo'lib, ichki va tashqi jihatlarni qamrab oladi. Ushbu tadqiqot muloqot madaniyatining mikrotizimlarini (axboriy, psixologik va faoliyatli) o'rganishga qaratilgan (2-rasmga qarang).



2-rasm. Muloqot madaniyati arxitektonikasi

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqot adabiy va ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish va tajriba asosida o'tkazildi. Adabiyot tahlili Leontiyev [1], Melibruda [2], Evstropova [3] va boshqa olimlar asarlariga asoslandi. Pedagogik kuzatish talabalarning muloqot madaniyati darajasini baholash uchun ishlatildi, shu jumladan guruh tajribalari va diagnostika usullari (barqarorlik, ijodkorlik, empatiya). O'quv mashg'ulotlarda muloqot muhitini yaratish uchun pedagogik shart-sharoitlar (madaniy dinamika, bosqichma-bosqich faoliyat, metodik tavsiyalar) qo'llanildi.

Nutq madaniyati darajasini oshirish uchun maxsus mashqlar, monolog nutqlar va ijodiy vazifalar tavsiya etildi.

Adabiyotlar

1. Леонтьев А.А. Психология общения. – Москва: «Смысл», 1997.
2. Melibruda J. Ja-Ty-My: Psychologiczne możliwości ulepszenia kontaktów międzyludzkich. Warszawa: Nasza Księgarnia. Retrieved from <https://psylib.org.ua/books/melib01/index.htm> 2021.
3. Евстropova Н.С. Использование технологии командoобразования в процессе обучения иностранному языку. // Традиции и инновации в строительстве и архитектуре: материалы 71-ой Всероссийской научно-технической конференции. – Самара: СГАСУ, 2014. – С. 93-94.

Muloqot madaniyati ko'rsatkichlarini baholash mezonlari: kasbiy vazifalarni hal etishda unumli ishtirok, bilim va ko'nikmalarni qo'llash, jamoada rollarni bajarish va o'z-o'zini baholash. Tadqiqot jarayonida talabalarning dastlabki muloqot madaniyati farqlari (shahar/qishloq, gender) o'rganildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari muloqot madaniyatining uch mikrotizimini ko'rsatdi: axboriy (kognitiv va refleksiv komponentlar), psixologik (motivatsion, empatik va atributiv tarkibiy asoslar) va faoliyatli (malakali va kreativ tuzilmalar). Axboriy mikrotizim muloqot bilimlari va ahamiyatini anglashni ifodalaydi.

Psixologik mikrotizim motivatsiya (ichki va tashqi), empatiya (suhbatdosh his-tuyg'ularini anglash) va atributiv baholash (xatti-harakatlar tahlili)ni o'z ichiga oladi. Faoliyatli mikrotizim kommunikativ kompetensiyalarni (til bilimi, nutq madaniyati, tinglash) va kreativ yondashuvni (moslashuvchanlik, ijodiy fikrlash) qamrab oladi.

Talabalarda muloqot madaniyati rivojlanishi natijasida yangi ko'nikmalar orttirildi, ijobiy tajriba shakllandi. Muloqot motivlari (maqsadga erishish, axborot almashish) va ko'rsatkichlari (adabiy til me'yorlari, nutq odobi, odob-axloq) aniqlandi. Tadqiqot muloqot madaniyatining mahsuldorligini oshirishni ko'rsatdi.

Muhokoma. Muloqot madaniyati inson rivojlanishining murakkab tizimi bo'lib, psixologik va faoliyatli mikrotizimlar orqali shakllanadi. Kasbiy ta'limda muloqot madaniyati rivojlantirish muhim, chunki u mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyalarini belgilaydi. Natijalar talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini taklif etadi, bu jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Muloqot madaniyati milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlanishi zarur. Kelgusida tadqiqotlar muloqot madaniyatining kasbiy sohalar bo'yicha farqlarini o'rganishi mumkin.

Xulosa. Turli davrlarga xos tarbiyaviy tizimlarni tadqiq etish, shuningdek, o'rganilayotgan muammoning zamonaviy tendensiyalarini aniqlash asosida texnika yo'nalishi talabalarida muloqot madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy, psixologik-pedagogik va metodologik shart-sharoitlari tizimlashtirildi hamda tasnif qilindi. Jumladan, ijtimoiy shart-sharoitlarga texnik yo'nalishda ta'lim oliy nufuzining pasayishi, Internet-ijtimoiylashuv sharoitida sof madaniyat o'rnini ommaviy madaniyatning egallayotganligi kabi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni kiritish mumkin.

Metodologik shart-sharoitlarga muloqot madaniyatini rivojlantirish texnologiyasiga doir maxsus adabiyotlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligini kiritish mumkin. To'g'ri, ishchan muloqot madaniyatining metodologik masalalari ochib berilganligini e'tirof etish mumkin. Biroq muloqotning mazkur turi ko'p jihatli voqelik hisoblangan muloqot madaniyatining alohida tarkibiy qismi ekanligini ham aytib o'tish lozim. Ishchan muloqot madaniyatini rivojlantirish bo'lajak mutaxassis shaxsini shakllantirishni to'liq ta'minlay olmaydi.